

## QAYDNOMA №8

2023-yil 1-mart kuni soat 14:00 da o'tkaziladigan  
ToshPTI Ilmiy Kengashining

### QAROR LOYIHASI:

#### Kun tartibi:

1. ToshPTIda talaba yoshlar o'rtasida tarbiyaviy tadbirlarni natijaviyligini oshirish va oliy ta'lim tizimida ma'naviy va ma'rifiy yo'nalishlarni takomillashtirish masalalari bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar to'g'risida.

**Ma'ruzachi: Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha prorektor M.A.Axmedova.**

2. Bolalar milliy tibbiyot markazi faoliyati yutuqlari va istiqbollari hamda 2023-yilda amalga oshiriladigan ishlar haqida.

**Ma'ruzachi: Bolalar milliy tibbiyot markazi direktori t.f.d., professor A.M. Sharipov.**

3. Professor – o'qituvchilarni uzlukiz kasbiy malakasini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida.

**Ma'ruzachi: Malaka oshirish (oilaviy shifokorlarni qayta tayyorlash, klinik ordinatura va birlamchi ixtisoslashtirish) fakulteti dekani A.A. Raxmatullayev.**

4. 2022-2023 o'quv yilida dars qoldirgan talabalar bilimini baholash hamda fakultet kafedralari talabalari tomonidan fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlarini tahlili.

**Ma'ruzachi: O'quv-simulyatsiya va talabalar bilimini baholash markazi direktori U.U.Abdullayeva**

5. Professor va o'qituvchilarni tanlov asosida lavozimga va ilmiy unvonga saylash.

**Ma'ruzachi: Saylov komissiyasi raisi.**

6. Dissertatsiya, monografiya va o'quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash.

**Ma'ruzachi: Ilmiy Kengash kotibi.**

7. Turli masalalar.

#### Ko'rib chiqildi:

**Birinchi masala bo'yicha** ma'ruzachi ToshPTI Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha prorektor M.A.Axmedova. ToshPTIda talaba yoshlar o'rtasida tarbiyaviy tadbirlarni natijaviyligini oshirish va oliy ta'lim tizimida ma'naviy va ma'rifiy yo'nalishlarni takomillashtirish masalalari bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar to'g'risida.

#### 1 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:

ToshPTI Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha prorektor M.A.Axmedova. ToshPTIda talaba yoshlar o'rtasida tarbiyaviy tadbirlarni natijaviyligini oshirish va oliy ta'lim tizimida ma'naviy va ma'rifiy yo'nalishlarni takomillashtirish masalalari bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar to'g'risida:

Ishlab chiqilgan “Odob axloq kodeksi va “Sharaf” Kodeksiga qat’iy amal qilinsin;

2023 yilda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan yillik rejasi asosida amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar natijadorligiga alohida e’tibor qaratilsin.

**Ikkinchi masala bo‘yicha** ma’ruzachi Bolalar milliy tibbiyot markazi direktori t.f.d., professor A.M. Sharipov. Bolalar milliy tibbiyot markazi faoliyati yutuqlari va istiqbollari hamda 2023-yilda amalga oshiriladigan ishlar haqida ma’lumot uchun qabul qilindi.

### **2– masala bo‘yicha Ilmiy Kengash Qarori:**

Bolalar milliy tibbiyot markazi direktori t.f.d., professor A.M. Sharipov. Bolalar milliy tibbiyot markazi faoliyati yutuqlari va istiqbollari hamda 2023-yilda amalga oshiriladigan ishlar haqida ma’lumot uchun qabul qilindi:

Tug‘ma nuqson va irsiy kasalliklar bilan kasallangan bolalarning elektron reestrini yaratish maqsadida homilador ayollarning homiladorlikning birinchi uch oyligida (11-14 haftaligida) to‘liq qamrovli skriningini tashkil etish;

Markazda tug‘ma nuqsonli bolalarga go‘daklik davrida yuqori texnologik yordam ko‘rsatuvchi hududiy mutaxassislarni tayyorlash;

- Hududlarda tug‘ma nuqsonli bolalarga go‘daklik davrida yuqori texnologik yordam ko‘rsatish imkoniyatini yaratish maqsadida mobil jarrohlik brigadalarni tashkil etish;

- Tug‘ma nuqson va irsiy kasalliklar paydo bo‘lish sabablarini tahliliy o‘rganish va u asosida ushbu kasalliklarning oldini olish dasturini ishlab chiqish.

**Uchinchi masala bo‘yicha** ma’ruzachi Malaka oshirish (oilaviy shifokorlarni qayta tayyorlash, klinik ordinatura va birlamchi ixtisoslashtirish) fakulteti dekani A.A. Raxmatullayev. Professor – o‘qituvchilarni uzlukiz kasbiy malakasini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida ma’lumot va ijro uchun qabul qilindi.

### **3 – masala bo‘yicha Ilmiy Kengash Qarori:**

Malaka oshirish (oilaviy shifokorlarni qayta tayyorlash, klinik ordinatura va birlamchi ixtisoslashtirish) fakulteti dekani A.A. Raxmatullayev. Professor – o‘qituvchilarni uzlukiz kasbiy malakasini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida ma’lumot va ijro uchun qabul qilindi:

1. Mavzuli malaka oshirish kurslarigi o‘qishga jalb qilishda kafedralarning ishtirokini jadallashtirish.
2. Sohadagi yetakchi mutaxassislar tomonidan mualliflik mavzuli kurslarini tashkil qilish.
3. Malaka oshirish kurslarini tashkil qilishda masofaviy ta’lim turlaridan (onlayn kurslar, Moodle masofaviy ta’lim platformasi) foydalanish.
4. Kurslarda kursantlar sonining oshib borishi hisobiga mashg‘ulot o‘tqazgan professor o‘qituvchilarga tushgan mablag‘ning 35-40% gacha bo‘lgan miqdoriga oshirish.

**Turtinchi masala bo'yicha** ma'ruzachi O'quv-simulyatsiya va talabalar bilimini baholash markazi direktori U.U. Abdullayeva. 2022-2023 o'quv yilida dars qoldirgan talabalar bilimini baholash hamda fakultet kafedralari talabalari tomonidan fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlarini tahlili ma'lumot uchun qabul qilindi.

#### **4 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:**

O'quv-simulyatsiya va talabalar bilimini baholash markazi direktori U.U. Abdullayeva. 2022-2023 o'quv yilida dars qoldirgan talabalar bilimini baholash hamda fakultet kafedralari talabalari tomonidan fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlarini tahlili ma'lumot uchun qabul qilindi:

Baholashning yangi darajasiga o'tish, bilimga asoslangan mantiqiy topshiriqlar bo'yicha;

Simulyatsiya markazining qo'shimcha kompyuter xonalarini ochish va jihozlash;

Kelajakda simulyatsiya markazining integratsiyasi va qoldirilgan darslarni, klinik fanlar bo'yicha, birinchi navbatda o'tkazib yuborilgan amaliy ko'nikmalarni amalga oshirish;

Simulyatsiya mashg'ulotlari uchun pullik asosda o'quv kurslarini ochish; feldsherlarni (o't o'chiruvchilar, Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlari va boshqalar) sertifikatlar berish bilan birinchi tibbiy yordam ko'rsatish ko'nikmalariga o'rgatish.

**Beshinchi masala bo'yicha masala bo'yicha** ma'ruzachi Saylov komissiyasi raisi A.A. Raxmatullayev "Professor va o'qituvchilarni tanlov asosida lavozimga va ilmiy unvonga saylash" natijalari to'g'risida hisobot berib o'tdilar.

#### **5 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:**

Saylov komissiyasi raisi A.A. Raxmatullayev "Professor va o'qituvchilarni tanlov asosida lavozimga va ilmiy unvonga saylash" natijalari to'g'risida hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

**Oltinchi masala bo'yicha** ma'ruzachi ToshPTI Ilmiy Kengash kotibi tasdiqlash uchun taqdim etilgan darslik, o'quv qo'llanma va uslubiy tavsiyanomalarni o'qib eshittirdi. Ularning muhokamasi bo'lib o'tdi.

#### **6 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:**

ToshPTI Ilmiy Kengash a'zolari tomonidan tasdiqlash uchun taqdim etilgan darslik, o'quv qo'llanma, monografiya va uslubiy tavsiyanomalar ovozga qo'yildi va bir ovozdan keyingi bosqichga tavsiya etildi.

#### **7. Turli masalalar.**

**Kengash raisi**  
t.f.d., professor:

**Kengash kotibi**  
t.f.d., dotsent:



**B.T. Daminov**

**X.A. Akramova**